TASVIR VA TAFAKKUR (MAKTABGACHA TA'LIMNING TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARIDA TASVIR ORQALI IDROK ETISHNI SHAKLLANTIRISH)

Alisher Bolibekov
Guliston davlat pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrasi dotsenti
e-mail: alisher1960pc@gmail.com
Laylo O'ktamova
Guliston davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
e-mail:oktamoval@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali bolalar idrokini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari haqida fikr yuritilgan. Bolalar rivojlanishida tasviriy san'atning ahamiyati, ranglar, shakllar va obyektlarni vizual idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari yoritilgan. Tadqiqotda tasviriy mashg'ulotlarning idrok jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekani, pedagogik metod va yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada didaktik o'yinlar, ijodiy tasviriy faoliyat va bolalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola natijalari bolalarda dunyoqarash, ijodiy tafakkur va estetik idrokni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: bolalar idrok, didaktik o'yinlar, estetik rivojlanish, ijodiy qobiliyati, pedagogik metodlar, tasviriy faoliyat.

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of developing children's perception through visual art activities. It highlights the importance of visual arts in child development and explores methods to enhance children's visual perception of colors, shapes, and objects. The study analyzes factors that influence the perception process in art activities, as well as the effectiveness of pedagogical methods and approaches. Additionally, it provides insights into didactic games, creative visual activities, and methods for developing students' aesthetic abilities. The findings of the article contribute to fostering a worldview, creative thinking, and aesthetic perception in children.

Keywords: children's perception, didactic games, aesthetic development, creative ability, pedagogical methods, pictorial activity.

Mamlakatimizda kelajak avlod manfaatlari uchun juda keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda, xususan maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi, rivojlanishi, har tomonlama sog‘lom va barkamol voyaga yetishi va milliy mafkuraviy qadriyatlarimizning singdirib borilishi uchun qat`iy yeng shimarib ishga kirishilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda aytish joizki mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq: maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni o‘z ichiga olganligi fikrimizning yaqqol isbotidir. Bu konsepsiya endilikda kashf etilishi mumkin bo‘lgan intellektual qobiliyatlarning bir debochasi desak adashmagan bo‘lamiz.

Bolalarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali idrokini shakllantirish bugungi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim o‘rinni egallaydi. Bolalar uchun dunyoni vizual qabul qilish jarayoni ularning rivojlanish bosqichida o‘ziga xos rol o‘ynaydi va ular ranglar, shakllar, hajmlar hamda boshqa elementlarni tushunish orqali atrof-muhitni o‘rganadilar. Tasviriy faoliyat bolalarning estetik qobiliyatlari, hissiy idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda idrokning rivojlanishi: bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olish davri uch yoshdan boshlanib, bu yoshda bolalarning ijodiy qobiliyatlari yaxshiroq rivojlanadi va bolalarda bu yoshda nutq jadal tezlikda o‘sa boshlaydi. Shuning uchun ham bolalar bu yoshda juda ko‘plab voqea va hodisalarga katta qiziqish bildiradi hamda ularni mustaqil bajarishga bo‘lgan ishtiyoq juda kuchli bo‘ladi. Bolalarning hayotidagi bu o‘zgarishlar albatta ularning idrokiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda dunyoni to‘g‘ri anglash va obrazlar orqali idrok qilish imkoniyati ularning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

L.S.Vygotskiyga ko‘ra, “Tasavvur tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir, bu ikki jarayonning birligi haqidagi bayonot joizdir”. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat o‘ziga xos ta’limiy vazifani bajarib, ularning fikrlash, diqqat va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda bolalar turli obrazlar yaratish, predmetlarning xususiyatlarini o‘rganish orqali o‘zlarini o‘rab turgan olam haqida yangi bilimlar olishadi. Masalan, ranglarni idrok qilish orqali ular his-tuyg‘ularni ifodalashni o‘rganadilar, shakllar va strukturalarni tasvirlash esa ularda kuzatuvchanlik va analitik tafakkur qobiliyatini oshiradi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari bolalarda idrokni rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy va emotsional jihatdan o‘sishiga ham yordam beradi.

O‘quv jarayonida estetik tuyg‘ularni rivojlantirish orqali bolalar o‘z atrofidagi narsalarni yanada chuqurroq anglab olishadi va bu ularning ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarning idrok qobiliyatini shakllantirishda va ularning estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida idrok qilish qobiliyatini shakllantirish usullari va yondashuvlari, pedagogik metodlarning ta’siri hamda bolalarning estetik va ijodiy rivojlanishini chuqurlashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Tasviriy faoliyat va idrok. Tasviriy faoliyat – bu bolalarda hayotiy idrok va estetik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali metod. Psixologlar idrokni tashqi muhit haqidagi axborotni qabul qilish va tushunishga yordam beruvchi muhim psixologik jarayon sifatida ko‘rib chiqadilar. Ushbu jarayon bolalarda ranglar, shakllar, hajm va strukturalarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Tasviriy san’at orqali bolalar atrof-muhitni yaxshiroq anglab olishadi va vizual obrazlarni birlashtirish qobiliyatini o‘zlashtirishadi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda

kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg‘u, badiiy did, mustaqil fikrlay olish, mustaqil qaror qabul qila olish, ishning natijasi va xulosalarini tahlil qila olish, bundan tashqari axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Bolalar bilan birgalikda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida o‘tkaziladigan suhbat ularda fazoviy tasavvur va shu tasavvurlari orqali narsa, buyumlar va voqea - hodisalarni idrok etishga qiziqishlarini uyg‘otishi zarur. Ammo, shuni e’tiborga olish kerakki o‘tayotgan jarayon bilan bog‘liq bo‘lmagan yuzaki hamda noaniq bo‘lgan ma’lumotlar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so‘ndiradi. Suhbat yoki ma’lum bir tasvir orqali idrok qilishda taqdim qilinayotgan ma’lumot va sifatlarning naqadar aniq va shaffofligiga urg‘u berish muhimdir. Tasvir orqali idrok etishda mashg‘ulotlar jonli, emotsional, ertakli surprizli elementlar bilan o‘tilsa o‘ylangan natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ta’lim jarayonini bolalar sezmaydigan, yengil qilib o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar - o‘yin, badiiy o‘qish va hikoya qilish, musiqa va hokazolar bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borish bolalar tasavvurini yuqori darajada rivojlantirishga zamin yaratadi. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

1. Tasviriy mashg‘ulotlarda idrokni rivojlantirish metodlari. Obyektlarni taqqoslash va analiz: Bolalar turli obyektlarni rangi, shakli va hajmi bo‘yicha taqqoslash orqali idrok jarayonini o‘rganadilar. Bu mashg‘ulotlar bolaning obyektlar orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini tushunishiga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar: Rang, shakl, va hajmga asoslangan o‘yinlar bolalarning idrok qobiliyatlarini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Bunday o‘yinlar bolalarda ranglarni ajratish va ob'ektlarni to‘g‘ri aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tasviriy tasavvurlarni yaratish: Bolalarga turli obrazlarni shakllantirish imkoniyati beriladi. Bu ular uchun yangi obrazlar va voqeliklarni idrok qilish hamda o‘z tasavvurlarini mustaqil tarzda yaratishga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatda pedagogik yondashuvning ahamiyati. Pedagogik jarayonda bolalar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish va ularga o‘z qiziqishlarini ifodalash imkonini berish muhimdir. Pedagogik yondashuvlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Vizual metodlar: Tasvirlarni qiziqarli va jonli shaklda taqdim etish bolalar diqqatini jalb qilish va idrokni rivojlantirishda asosiy usullardan biridir.

Ijodiy loyihalar: Bolalarga mustaqil ijod qilish imkoniyatini berish va o‘z asarlarini yaratuvchanlik bilan shakllantirishda rag‘batlantirish kerak.

Savollar va tushuntirishlar: Har bir mashg‘ulotda savollar berish va tasviriy elementlar haqida suhbat olib borish bolalarning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Ilmiy tadqiqot natijalari va amaliyot. Tadqiqotlar tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bolalar tasviriy faoliyat davomida o‘zlarini erkin his qilishlari va o‘z g‘oyalarini ochiq ifodalashlari ularning ijodiy o‘sishini rag‘batlantiradi. Idrokning rivojlanishi esa, bolalarda mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunish, obrazlarni hosil qilish qobiliyatini oshirish va tasviriy ko‘nikmalarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

4. Predmetning tasvirini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar; tarbiyachi stolida turli xil kattalikdagi o‘yinchoqlar, kubiklar, sharlar, matreshkalar, aylanalar bo‘ladi. Vazifalar - eng katta kubikni ko‘rsatish, eng kichik sharni ko‘rsatish, matreshkalarni kattasidan boshlab ketma - ket taxlash va hokazolar.

I. Predmet shaklini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar; tarbiyachi stolida kubik, geometrik shakllar, meva sabzavotlar va sharlar boladi.

-bolalarga kubiklar o‘ng tomondagi qutiga, pufaklar chap tomondagi qutiga

joylashtirish topshiriladi;

-bolalarga har xil formadagi figuralar solingan konvert beriladi. Ularni shakllarini ajratib bir xil qilib joylashtirish talab etiladi;

-bolalarga olma, uzum, qovun, sabzi, olxo‘ri rasmlari bor kartochkalar beriladi. Sabzavot va mevalami ajratish talab etiladi.

II. Ranglarni ajratishga qaratilgan o‘yin va vazifalar: Har bir bolada har xil rangdagi geometrik figuralar yoki mayda predmetlar bo‘ladi. Bu figura va predmetlarni ranglar boyicha guruhlashtirish talab etiladi. Avval 2 ta rangdan iborat bo‘lgan predmetlar olinadi, so‘ngra ranglarning soni ko‘paytirib boriladi. bolalarda qizil, sariq, ko‘k, qora, oq rangli kartochkalar bo‘ladi. Tarbiyachi qaysi rangni talaffuz qilsa, bolalar shu rangdagi kartochkalarni ko‘rsatishlari kerak.

III. Predmetning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar: Doskaga katta ko‘rgazma yoki qog‘oz osib qo‘yiladi va tarbiyachi topshiriq beradi:

-qog‘ozning yuqori qismini ko‘rsating;

-qog‘ozning pastki qismini ko‘rsating;

-qog‘ozning past, o‘ng tomonini ko‘rsating;

-qog‘ozning o‘rtasini ko‘rsating. Kabi o‘yin metodlari orqali bolalarda tasvirlar va predmetlar orqali idrokni shakllantirish maqsadli va samarali amalga oshadi.

Bolalarda idrok etish tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. G‘oyalar, qarshi fikrlar va dalillarni baholash qobiliyatlarni yaxshilaydi. Bundan tashqari, idrok etishni o‘rganish fikrlarni mantiqan tahlil qilishni, noto‘g‘ri fikrlar, tushunchalar va tasavvurlarni aniqlashda bolalarni mustaqil va mahoratli bo‘lishini ta`minlaydi. Shuning uchun, bu ko‘nikma bolalarningning kundalik hayotida juda amaliy foyda keltiradi. Buning sababi, u voqea-hodisalarni tahlil qilishda yoki eng muhim bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda yordam beradi. Bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida idrok qilish qobiliyatini shakllantirish ularning umumiy rivojlanishida, ayniqsa estetik did, ijodiy fikrlash va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tasviriy mashg‘ulotlar orqali bolalar ranglar, shakllar, tuzilmalar va obrazlarni anglashni o‘rganadi. Bu jarayon ularning kuzatuvchanligini oshirish bilan birga, atrof-muhitni chuqurroq idrok qilishga yordam beradi. Bolalarni idrokini shakllantirishda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar va usullar, masalan, obyektlarni kuzatish va taqqoslash, didaktik o‘yinlar, ijodiy tasviriy faoliyat va mavhum obrazlar bilan ishlash, ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalar beradi. Ushbu yondashuvlar bolaning tasavvur dunyosini kengaytiradi va ularning dunyoqarashini estetik jihatdan boyitadi.

Bundan tashqari, individual yondashuv va muloqot orqali tasviriy faoliyatni amalga oshirish, har bir bolaning o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkon yaratadi. Pedagoglarning o‘z vaqtida berilgan ko‘rsatmalari va yordamida bolalar tasvirni chuqurroq anglaydi, o‘zlarini ijodiy tarzda ifoda qilishni o‘rganadilar va hissiy olamlarini boyitadilar. Umuman olganda, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va estetik idrokini kuchaytirish uchun samarali vositadir. Shu sababli, tasviriy faoliyat orqali idrokni rivojlantirish metod va yondashuvlarini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 08.05.2019 yildagi PQ-4312-sonli qarori.
2. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 410p
3. Ochilova Dilrabo Karomatovna. Tasviriy san’at fanida didaktik o‘yinlardan foydalanishni ahamiyati, Talqin va taqdiqot Respublika ilmiy-uslubiy №5
4. Sh.I.Botirova, M.S.Achilova Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2022.
5. https://fasih.uz/posts/falsafiy-idrok
6. https://doi.org/10.5281/zenodo.6696470
7. https://docx.uz/document/tafakkur-va-nutqning-genetik-ildizlari-l-s-vigotskiy-bo-yicha-ade928dc?lang=uz.